

XORIY TAJRIBALARI ASOSIDA TA'LIM SIFATI BOSHQARUVINING O'ZIGA XOS JIHATLARI.

Shukurova Shaxzodaxon Xolbek qizi

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti pedagogika mutaxassisligi 2-bosqich
magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada xorijiy mamlakatlarning ilg'or ta'lim boshqaruvi tajribalari o'rganilib, ta'lim sifatini samarali boshqarishning asosiy tamoyillari tahlil qilingan. Shuningdek, ta'lim sifati jarayonlariga ta'sir ko'rsatuvchi omillar aniqlanib, O'zbekiston sharoitida ularni qo'llash imkoniyatlari yoritilgan. Tadqiqot natijalari ta'lim boshqaruvida innovatsion yondashuvlar joriy etish zarurligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: ta'lim sifati, boshqaruv, xorij tajribasi, monitoring, baholash tizimi, raqamlashtirish, xalqaro amaliyot, innovatsion menejment

Аннотация: В данной статье исследован передовой опыт зарубежных стран в области управления качеством образования и проанализированы ключевые принципы эффективного управления образовательными процессами. Определены факторы, влияющие на качество образования, и рассмотрены возможности их адаптации в условиях Узбекистана. Результаты исследования подтверждают необходимость внедрения инновационных моделей управления в сфере образования.

Ключевые слова: качество образования, управление, зарубежный опыт, мониторинг, система оценивания, цифровизация, международная практика, инновационный менеджмент

Abstract: This article examines the advanced international practices of education quality management and analyzes the key principles of effective governance in the educational sector. International approaches to monitoring, assessment, digitalization, and management are compared with current practices in Uzbekistan. The findings highlight the importance of implementing innovative management models to enhance education quality.

Keywords: education quality, management, international experience, monitoring, assessment system, digitalization, global practice, innovative management

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" 2019 yil 8 oktyabrdagi PF-5847-son farmonida Respublikamizda oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi asosida ta'lim muassasalarini raqamli iqtisodiyot sharoitida sog'lom va ijodiy boshqarish tizimini takomillashtirishning imkoniyatlari, yo'nalishlari, mazmuni hamda bajarish vaqtlari keltirilgan bo'lib, ular bir necha bosqichdan iboratdir:

- oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayonini bosqichma-bosqich kredit- modul tizimiga o'tkazish;

- xalqaro tajribalardan kelib chiqib, oliy ta'limning ilg'or standartlarini joriy etish, jumladan o'quv dasturlarida nazariy bilim olishga yo'naltirilgan ta'limdan amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga yo'naltirilgan ta'lim tizimiga bosqichma- bosqich o'tish;
- O'zbekiston oliy ta'lim tizimini Markaziy Osiyoda xalqaro ta'lim dasturlarini amalga oshiruvchi "xab"ga aylantirish;
- oliy ta'limning investitsiyaviy jozibadorligini oshirish, xorijiy ta'lim va ilm- fan texnologiyalarini jalb etish;
- oliy ta'lim bilan qamrovni kengaytirish, oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirish;
- oliy ta'lim muassasalarida ilmiy-tadqiqot ishlari natijadorligini oshirish, yoshlarni ilmiy faoliyatga keng jalb etish, ilm-fanning innovatsion infratuzilmasini shakllantirish;

O'zbekiston respublikasi Prezidenti SH.Mirziyoyev "...zamonning yurishi, o'zgarishi bilan avvalo rahbarlar, yetakchilar o'zgarishi kerak. Biz XXI asr intellektual taraqqiyot asri, deb ko'p gapiramiz. Modomiki, shunday ekan, bugungi kunda rahbar nafaqat aniq bir kasb-hunarning egasi, avvalo o'zining faoliyati va insoniyligi bilan xalqning ishonchiga munosib bo'lishi, yuksak intellektual tafakkur sohibi, uzoqni ko'ra oladigan, doimo yangilikka intilib, zamon bilan hamqadam bo'lib yashaydigan, qat'iyatli shaxs bo'lishi lozim" deya ta'kidlaydilar. Darhaqiqat, mamlakatimizning taraqqiyot bosqichida muassasa kabi murakkab dinamik tizimni boshqarish uning rahbarini nafaqat ichki va tashqi muhitdagi barcha o'zgarishlarga moslashuvchan bo'lishga, o'z vaqtida javob berishga, balki ularning rivojlanishini prognoz qilish jarayonlariga ham diqqatini qaratishga undaydi.

Boshqaruvda shaffoflik, adolatlilik, o'zaro ishonch, hamkorlik, qat'iyatlilik sifatlarini namoyish qilish, rahbar o'z faoliyatida oshkoralik, adolat, jamoa bilan samarali hamkorlik va qat'iyatlilikni ko'rsatishi, bu esa muassasada jamoasida sog'lom va ijodiy ish muhitini shakllantiradi.

Xalqaro davlatlar tajribasi tahlili

Mamlakat	Tajriba mazmuni	Rivojlantiriladigan boshqaruv ko'nikmalari	Akmeologik yondashuv bilan bog'liqligi
Finlandiya	Rahbarlar mustaqil qaror qabul qiladi; kasbiy avtonomiya yuqori darajada	Mustaqil fikrlash, innovatsiyalarni joriy qilish, jamoani boshqarish	Rahbarlar o'z kasbiy cho'qqisiga erkinlik va ishonch orqali erishadi
Singapur	"Leaders in Education Programme" - 6 oylik amaliy tayyorlov kurslar	Strategik fikrlash, o'zgarishlarni samarali boshqarish, liderlik	Rahbarlar uchun shaxsiy rivojlanishga asoslangan intensiv tayyorgarlik tizimi

Buyuk Britaniya	NPQH - rahbarlar uchun milliy malaka dasturi, kompetensiyalarga asoslangan modul tizimi	Raqamli boshqaruv, monitoring, o'qituvchilar faoliyatini boshqarish	Kompetensiyalarning uzluksiz rivojlanishi orqali shaxsning yuqori bosqichga erishish imkoniyati yaratiladi
AQSH	"Instructional Leadership" modeli, mentorlik va rivojlanish monitoringi asosida boshqaruv o'rgatiladi	Pedagogik liderlik, maqsadli boshqaruv, natijadorlik monitoringi	Rahbarlar uchun shaxsiy rivojlanish rejalari va kuzatuv mexanizmlari orqali akmeologik yondashuvni ta'minlaydi
Janubiy Koreya	KEDI instituti orqali texnologik va innovatsion boshqaruvga yo'naltirilgan dasturlar	Texnologik savodxonlik, zamonaviy boshqaruv, raqamli kompetensiyalar	Raqamli bilimlar orqali rahbarlarni kasbiy eng yuqori bosqichga yetkazish maqsadida tizimli tayyorgarlik

Finlandiya tajribasi: Oliy ta'lim muassasasi rahbarlarining boshqaruv ko'nikmalarini rivojlantirishda erkinlik va ishonchga asoslangan yondashuv katta ahamiyatga ega. Finlandiya ta'lim tizimi dunyoda o'zining yuqori natijalari, ishonchga asoslangan boshqaruv tamoyillari hamda samarali rahbarlik modeli bilan ajralib turadi. Mamlakatda oliy ta'lim muassasasi rahbarlariga katta darajada avtonomiya (ya'ni, mustaqil qaror qabul qilish huquqi) berilgan bo'lib, bu ularning kasbiy rivojlanishi va boshqaruv ko'nikmalarini mustahkamlashda muhim omil hisoblanadi. Uning asosiy jihatlari; rahbarlar o'z oliy ta'lim muassasasining o'quv rejasini, dars jadvalini, hatto o'qituvchilarni yollash jarayonini mustaqil tashkil etish huquqiga ega.

Singapur tajribasi: oliy ta'lim muassasasi rahbarlarini strategik va innovatsion lider sifatida tayyorlash tizimi Singapur Respublikasi ta'lim tizimi boshqaruv jarayonlarining yuqori darajadagi samaradorligi, rejalilik va tizimlilik prinsiplari bilan ajralib turadi. Oliy ta'lim muassasasi rahbarlarini tayyorlash jarayonida ham ushbu prinsiplar yaqqol namoyon bo'ladi. Mamlakatda oliy ta'lim muassasasi rahbarlarini tayyorlash bo'yicha alohida ishlab chiqilgan davlat dasturi mavjud bo'lib, u "Leaders in Education Programme" (LEP) deb nomlanadi. Mazkur dastur Milliy Ta'lim Instituti (National Institute of Education – NIE) tomonidan amalga oshiriladi va rahbar lavozimiga tayinlanishdan avval majburiy tarzda o'qitiladi. LEP dasturi 6 oy davom etadi hamda nazariy bilimlar, amaliy mashg'ulotlar va loyihalarga asoslangan holda tashkil etiladi.

AQSH tajribasi: Oliy ta'lim muassasasi rahbarlarining boshqaruv ko'nikmalarini amaliyotga yo'naltirilgan model asosida rivojlantirish Amerika Qo'shma Shtatlarida oliy ta'lim muassasasi rahbarlarini tayyorlash va ularning boshqaruv kompetensiyalarini rivojlantirish masalasi har bir shtatda alohida siyosat orqali yuritiladi. Shunga qaramay, mamlakat miqyosida umumiy tamoyillar va standartlar mavjud bo'lib, ular ta'lim rahbarlari tayyorgarligida yagona yondashuvni shakllantiradi. Bu tizimda rahbar faqat ma'muriy boshqaruvni amalga oshiruvchi emas, balki ta'lim jarayonining pedagogik yetakchisi sifatida qaraladi. Rahbarlar tayyorgarligi ko'pincha universitetlarning maxsus magistratura

dasturlari yoki professional rivojlanish markazlari orqali amalga oshiriladi. Ko‘plab shtatlarda oliy ta‘lim muassasasi rahbarligi uchun “Instructional Leadership” modeliga asoslangan o‘quv kurslari ishlab chiqilgan.

Janubiy Koreya tajribasi: Raqamli transformatsiya va ilg‘or texnologiyalarga asoslangan boshqaruv ko‘nikmalarini shakllantirish tizimi, Janubiy Koreya Respublikasi ta‘lim sohasida zamonaviy boshqaruv texnologiyalarini faol qo‘llab kelayotgan davlatlardan biridir. Mamlakat oliy ta‘lim muassasasi rahbarlarini tayyorlashda yuqori texnologiyalar, raqamli resurslar va innovatsion yondashuvlarga alohida e‘tibor qaratadi. Ta‘lim muassasalarining rahbarlari nafaqat tashkilotchi yoki ma‘muriy shaxs, balki strategik fikrlovchi, raqamli lider sifatida qaraladi. Oliy ta‘lim muassasasi rahbarlarini tayyorlash va ularning boshqaruv ko‘nikmalarini rivojlantirish bo‘yicha asosiy ilmiy-uslubiy faoliyat Koreya Ta‘limni Rivojlantirish Instituti (KEDI - Korea Educational Development Institute) tomonidan amalga oshiriladi. Ushbu institut ta‘lim rahbarlari uchun maxsus modulli dasturlarni ishlab chiqadi va ular orqali rahbarlarning kasbiy salohiyati doimiy ravishda baholab boriladi.

Xulosa o‘rnida shuni ta‘kidlash mumkinki, inson shaxsining kasbiy cho‘qqiga chiqishiga imkon beradigan sharoitlar yaratilgan, har bir rahbarning shaxsiy salohiyatini to‘liq ochib berishga qaratilgan tashabbuslar qo‘llab-quvvatlanadi, o‘zini o‘zi baholash, tahlil qilish va refleksiya qilish asosiy metodik tamoyil sifatida qaraladi. Xalqaro tajribaning O‘zbekiston ta‘lim tizimi uchun ahamiyatli jihatlaridan biri bu oliy ta‘lim muassasasi rahbarlarini tayyorlashda nazoratga emas, ishonchga asoslangan boshqaruv, liderlik kompetensiyalariga urg‘u berilgan o‘quv dasturlari, hamda raqamli texnologiyalar bilan integratsiyalashgan boshqaruv modelini joriy etish orqali rahbarlarning rivojlanishiga sharoit yaratishdir. Shu asosda, xorijiy tajribalar O‘zbekistonda oliy ta‘lim muassasasi rahbarlarining boshqaruv ko‘nikmalarini takomillashtirish uchun muhim metodik va amaliy asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

O‘zbekistonda xalqaro tajribalarni tatbiq etish imkoniyatlari va SWOT tahlili, xalqaro tajribalar oliy ta‘lim muassasasi rahbarlarining Finlandiya, Singapur, Buyuk Britaniya, AQSH va Janubiy Koreya tajribalari rahbarlarni strategik fikrlovchi, innovatsion va reflektiv lider sifatida tayyorlashga qaratilgan bo‘lib, tamoyillariga to‘la mos keladi.

Mazkur ilg‘or tajribalarni O‘zbekiston ta‘lim tizimiga tatbiq etishda milliy ta‘lim siyosati, mavjud infratuzilma, kasbiy rivojlanish tizimlari va ijtimoiy-madaniy omillar hisobga olinishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentyabrdagi “Ta‘lim to‘g‘risida”gi O‘RQ-637-son Qonuni.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 11 iyuldagi “Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim sohasida boshqaruvni isloh qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF-5763-son farmoni.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Davlat oliy ta‘lim muassasalariga

moliyaviy mustaqillik berish chora-tadbirlari to'g'risida" 2021 yil 24 dekabrda PQ-61-son qarori.

4. Toshtemirova C.A. (2020). Ta'lim sifati samaradorligini oshirishda innovatsion g'oyalarning ahamiyati

5. Klaus L.A. (1996). Quality Progress Sixth Quality in Education Listing. Quality Progress, August, 336.

6. Toshtemirova S.A. (2020). Ta'lim sifati va uni demokratlashtirish ilmiy muammo sifatida. Uzluksiz ta'lim, № 1(86), 5.

7. ISO 21001:2018. Educational organizations – Management systems for educational organizations – Requirements with guidance for use. International Organization for Standardization.

8. Harvey, L., & Green, D. (1993). Defining Quality. Assessment and Evaluation in Higher Education, 18(1), 9–34.

9. UNESCO (2021). Quality Education for All: Monitoring and Evaluation Frameworks. Global Education Report.